

“ODAM BO’LISH QIYIN” ROMANIDA PERSONAJLAR XARAКTERI

Normatov Rixsimurod Qo’chqor o’g’li

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XXasr o’zbek adabiyotiga beqiyos hissa qo’shgan adib O’lmas Umarbekovning “ODAM BO’LISH QIYIN” romani personajlar kesimida tahlil qilingan.*

Kalit So’zlar: *Adabiy jarayonlar, Personaj, ramziy belgilar, obraz tahlili, milliy ruh.*

Abstract *This article delves into the intricate character dynamics in Ulmas Umarbekov’s novel “It’s Hard to Be a Human” highlighting the profound influence of Western literary traditions on Uzbek literature during the 20th century. Umarbekov’s work stands as a testament to the evolving literary landscape, seamlessly blending nationalistic elements with innovative narrative techniques inspired by American and Western literature. The novel, set against the backdrop of a changing Uzbek society, explores deep psychological themes and the moral struggles of its characters, reflecting the broader socio-political challenges of the time. By examining key characters such as Abdullah, Gulchehra, and Sayyora, the analysis uncovers the nuanced portrayal of human desires, ethical dilemmas, and the perpetual conflict between personal aspirations and societal expectations. Furthermore, the study underscores Umarbekov’s skill in using symbolic elements and allegorical references to enrich the narrative, offering readers a comprehensive understanding of the characters’ inner worlds and the novel’s overarching message about the complexities of human existence.*

Keywords: *Literary processes, characters, symbolic signs, character analysis, national spirit*

XX-asrga qadar o’zbek shoir va yozuvchilari Fors, Arab, Hind va qardosh xalqlar adabiyoti bilan tanish bo’lgan bo’lsalar, XX-asr mobaynida tarjimonlarning zahmatli mehnatlari tufayli Rus, Fransuz, Nemis, Ingliz va boshqa xalq adiblarining ijod namunalarini mutolaa qilishga muvaffaq bo’ldilar. Ushbu jarayonlar o’zbek tili va adabiyotida yangi sohalar, janrlar, oqimlar, rang-barang syujetlar va yangidan-yangi personajlarni vujudga keltirdi.

O’lmas Umarbekovning 1969-yilda yaratilgan “Odam bo’lish qiyin” romani ham yangi adabiy jarayonlar ya’ni, Amerika va g’arb adabiyoti ta’sirida yaratilgan. Ammo, muallif asarning ilk jumlasidan to so’ngi nuqtasiga qadar milliy romanchilik uslubi va milliy ruhni saqlab qolishga harakat qildi.

Osmondagi bo’zto’rg’ay

Bo’zlamasang na bo’lg’ay?

Gulcheyhraning holini

So’zlamasang na bo’lg’ay?

(alyor)

”Odam bo’lish qiyin”Sharq: T. 2007

Muallif ushbu to’rtlikni epigraf sifatida tanlashda Qahhorona uslubdan borib asar mazmunini epigrafga singdirish vazifasini a’lo darajada bajaradi. Asar shoh Muslim haqidagi rivoyat bilan boshlanib, Abdulla va notanish kishining quyidagi

-Yigit!-deydi begona kishi to'xtab.

-Ertaga biznikiga keling. Otamlashamiz. Simyog'och qarshisidagi uy. Albatta keling!

-Rahmat, -dedi Abdulla.

Dialogi va bu tasodifiy uchrashuv uni battar ezib yubordi va u yoshi anchaga borib qolgan, ammo qonida yigitlik zavqi, muhabbati jo'sh urib turgan, osoyishta tun qo'ynidagi bo'm-bo'sh ko'chani to'ldirib borayotgan bu odamga cheksiz havas, ayni vaqtda hali uzoq yillar, balki umrbod qalbini timdalaydigan gunoh azobi bilan qarab qoldi. Kabi jumlar bilan yakunlanadi.[2. 3, 210].

Roman psixologik syujetga qurilgan bo'lib, olim bo'lish oson odam bo'lish qiyin g'oyasiga yo'g'rilgan. Syujet tarkibida uchrashuv, muhabbat, tansa va zino singari mativlar beshik, juxori, yalpiz kabi detallar va burgut, yulduz singari ramziy belgilar uchraydi. Asarda muhabbat tasviri qolaversa, Samad, Gulchehra, Sayyora, Abdulla kabi personajlarning ruhiyati, ichki olami, iztiroblari ishonarli va yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan. Xususan, Abdulla obrazi beqaror ruhiyatga ega bo'lgan ayrim o'rinlarda rahmdil, ishq-u muhabbatga tashna, yori uchun har nega tayyor oshiq sifatida tasvirlangan bo'lsa ba'zi o'rinlarda shuhratparast, beburd, xudbin, zinokor, jinoyatchi, qalbida bitmas hijron dog'i va buyuk armoni qolgan,

Bir umr vijdon azobida qolgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Hojar buvi obrazi kitobxonlarga otin bibi, zavod aya kabi nomlar bilan ham tanishtiriladi va asarda milliy ruh muvoznatini tutib turuvchi qahramon sifatida gavdalantiriladi.

Sayyora – bu personaj rus madaniyati bilan tarbiya topgan, erka, tantiq, zamonaviy shu bilan birga qo'shiq, tansa va kitob mutolaasiga mehr qo'ygan qiz sifatida ta'riflanadi.

Gulchehra obrazi dastlab ishq sharobidan sarmast, baxt osmonida parvoz qilgan, muvaffaqiyat pillapoyalarini birma-bir zabd etayotgan sodda va go'zal qiz sifatida tasvirlangan bo'lsa, asar yakuniga borib baxtsizlik timsoli va bevafolik qurboniga aylanadi.

Muallif zamonasidagi nohaqliklar, muammolar qolaversa sotsialistik tuzum siyosatiga bo'lgan munosabatini personajlar tilidan izhor qiladi.

Masalan, bitiruv oqshomi epizodida Qosimjon tomonidan yangragan shaharda o'qigim keladi. Bu yerda nima bor? Paxta, paxta va yana paxta! Jumalari sobiq sovet ittifoqining paxta siyosatiga qarshi jasoratli xayqiriq edi deya e'tirof etsakkina O'lmas Umarbekov ijodini munosib baholagan bo'lamiz.

Romandagi ayrim jumlar esa ochqich vazifasini bajaradi ya'ni, qahramonlarning taqdiri va voqiyiliklarni qay yo'sinda rivojlanib borishini belgilaydi. Jumladan, professor Tursunali Qurbonovning “vrachlar ikkita kasal davosini haligacha topolmayaptilar: bittasi-gipyertoniya, bittasi–rak” degan fikridan so'ng ko'p o'tmay Obid akaning qo'shnisi, Yusuf akaning rafiqasi rak kasaliga chalingan Saodat opaning vafot etgani haqidagi xabar voqealar rivojidan o'rin egallaydi.

Abdulla Gulchehra bilan birinchi uchrashgan joyi - jo'horizorga bordi. Ammo jo'hor endi yo'q edi. Ildizlari qovjiragan poyalar qoziqdek qaqqayib turardi.” [2]

Abdulla qancha axtarmasin, o'ziga yaqinroq joydan Gulchehraga atab bironta yulduz topolmadi. [Odam bo'lish qiyin. Sharq: T. 2007]

Ushbu jumlar asar yakunida bosh qahramonlar ya'ni, Abdulla va Gulchehralarning taqdir yo'llari kesishmasligi, adoqsiz hijron, so'ngsiz iztirob va fojiali hayot xotimasiga ishora qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В. Karim Ruhiyat alifbosi G'afur G'ulom: T. 2018
2. O'. Umarbekov "Odam bo'lish qiyin" Sharq: T. 2007
3. O'. Umarbekov "Odam bo'lish qiyin" G'afur G'ulom: T. 2022-y.210-b